

**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA O`QUVCHILARNI ONA TILI DARSЛИGI  
YORDAMIDA KASBLAR OLAMI BILAN TANISHTIRISH**

*Shodiyev N.*

*O`zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti*

*Pedagogika kafedrasi professori*

*Yusufova Shahzoda Behzod qizi*

*Pedagogika kafedrasi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili fani orqali boshlang`ich sinf o`quvchilarini kasblar olami haqida tanishtirish bilan bog`liq misollar keltiriladi.

**Kalit so`zlar:** kasbga yo`naltirish, kasb-hunar, kasblar olami, o`quvchilarini tanishtirish, ona tili fani.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 29-apreldagi PF-5712 sonli “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi hamda “Professional ta`limni yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” gi farmonlari mamlakatimizda yosh avlodni kasbga yo`naltirish ishini yanada jonlantirib yubordi.

Mazkur jarayonni amalga oshirishda boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi nafaqat o`quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki, ushbu jarayonda o`quvchilarini kasbga yo`naltiradi. Shu sababli, boshlang`ich sinf ona tili fani darsliklarining bu sohadagi imkoniyatlarini namoyon qilishga ehtiyoj bor.


Shu munosabat bilan biz kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning kasblar olami haqidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtirish maqsadida 4-sinf ona tili dasturi va darsligida ko`zda tutilgan “Tovushlar va harflar”, “Bo`g`in va bo`g`in ko`chirish”, “So`z va uning ma`no turlari”, “Fe`l so`z turkumi”, “Gapning bosh bo`laklari”, “Gapda so`zlarning bog`lanishi” kabi mavzularning o`quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyatlarini ko`rib chiqamiz.

### **Tovushlar va harflar**

11-mashq. So`zlarning tushirib qoldirilgan harflarini qo`yib, to`g`ri talaffuz qilib o`qing. Qaysi tovush talaffuzida xatoga yo`l qo`yishingiz mumkinligini aytинг.

Bo\_bon, chilan\_ar, et\_kdo`z, pa\_takor, tiku\_chi, hiso\_chi, shi\_okor, m\_xbir, veter\_nar, di\_ayner, jar\_oh.

13-mashq. So`zlardagi a va i unli tovushlarining talaffuziga diqqat qiling. Qaysi so`zlarning talaffuzi va yozilishida farq sezdingiz?




### Bo`g`in va bo`g`in ko`chirish.

42-mashq. Berilgan so`zlarni o`qing, ularni bo`g`in ko`chirish qoidasiga ko`ra bo`g`inlarga bo`lib yozing.

Uchuvchi, novvoy, pillachi, jurnalist, rassom, kosmonavt, soatsoz, naqqosh, kutubxonachi, tarjimon, psixolog.

Uchuv-chi, nov-voy, pil-la-chi, jur-na-list, ras-som, kos-mo-navt, soat-soz, naq-qosh, ku-tub-xo-na-chi, tar-ji-mon, psi-xo-log.

45-mashq. Harflar birikmalarining har biriga 5 tadan so`z toping.



### So`z va uning ma`no turlari.

59-mashq. O`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarning ma`nosini tushuntiring.

1. **Cho`pon** qo`ylarini adirga haydadi.
2. Aktam uyiga **suvoqchini** olib keldi.
3. O`shanda **duradgor** yog`ochga pona qoqib, tushlik qilish uchun uyiga ketadi.
4. Bobom **novvoy** bo`lgan, otam ham.

Ajratilgan so`zlar nimasi bilan o`xshash?

62-mashq. “Kim ko`p so`z topa oladi?” musobaqasi.

1. “Odam-odam” kasblari: tarbiyachi, sotuvchi, hamshira,...
2. “Odam-texnika” kasblari: mashinist, chilangar, arxitektor,...
3. “Odam- badiiy obraz” kasblari: aktyor, artist, rassom,...
4. “Odam- belgilar tizimi” kasblari: hisobchi, kassir, operator,...
5. “Odam-tabiat” kasblari: chorvador, bog`bon, asalarichi,...

Fe`l so`z turkumi.

273-mashq. Matnni o`qing va qayta hikoya qiling.


Qadim zamonda bir bog`bon bo`lgan ekan. Uning bog`ida, turli xil mevali daraxtlar bo`lib, har yili mo`l hosil berar ekan. Shu bois bog`bonning dong`i hamma yoqqa ketgan ekan. Bahor kelganda bog` yashnab ketar, kuz faslida esa anvoyi mevalarning ifori bog`ni tutib, ishtahani qitiqlar ekan. Bundan bog`bon boboning bahri dili ochilib, mevalaridan qo`ni-qo`shnilariga ulashar ekan. Bir kuni bog`bon bog`ida aylanib yurib, anjir daraxtiga ko`zi tushibdi. U yana meva tugmaganidan xafa bo`libdi.

Bog`bon, bog` so`zlarini to`g`ri talaffuz qiling va ma`nosini tushuntiring.

274-mashq. Boshqotirmani yeching. Maqolni o`qing va yozing.

U	T	Z	O	A	NG	D	K	U	U	
---	---	---	---	---	----	---	---	---	---	--

277-mashq. Rasmda tasvirlangan kasblarning qanday ish bajarishini bildiradigan so`zlarni toping va yozing.




**Gapning bosh bo`laklari.**

327-mashq. Berilgan so`zlardan gaplar tuzing. Gaplardagi ega va kesimning tagiga chizing.

1. Gullarni, chiroyli, ekyapti, bog`bon.
2. Baliq, daryoda, baliqchi, tutyapti.
3. Shoir, she`rlar yaratadi, go`zal.
4. Issiq, novvoy, non, yopadi.

### Gapda so`zlarning bog`lanishi.

333-mashq. Chizmani kuzating, so`roqlarga mos so`z topib, ikkita gap tuzing.



1. Quruvchilar mustahkam bino qurdilar.

2. Sozandalar milliy kuyimizni chaldilar.

340-mashq. Berilgan gaplarni o`qing. Ularga ikkinchi darajali bo`laklarni qo`sib, gapni qayta tuzing.

1. Kosmonavt uchdi.
2. Soatsoz sozladi.
1. Kosmonavt raketada oyga uchdi.
2. Soatsoz mening sevimli soatimni sozladi.

Ko`rib turganingizdek, yuqorida bayon qilingan mavzularning o`quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish ko`lami 4-sinf ona tili fanining mazkur soha bo`yicha keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari boshlang`ich sinf o`quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirib borish bilan birgalikda, ularning mehnat faoliyati elementlari haqidagi tasavvur, tushuncha va bilimlarini kengaytiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi 2019-yilning 29-apreldagi PF-5712 sonli Farmoni\ “Xalq so`zi” gazetasi 2019-yil 30-aprel.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Professional ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812 sonli Farmoni.

3. Abdurashid Abdumannobovich Turg`unov. “Kasb- hunarga yo`naltirish”. O`quv qo`llanma. Toshkent-2019.
4. Umumiyo`rta ta`lim mакtablarining 4-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to`ldirilgan 9-nashri. Toshkent-2020.
5. Shodiyev.N Fayziyev M. O`quvchilarni kasb tanlashga yo`naltirish asoslari. O`quv qo`llanma. Samarqand-2023.